



QARSHI  
DAVLAT  
UNIVERSITETI

# JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA TA'SIRINI O'RGANISH MUAMMOSI

(Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari)



QARSHI - 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**JADIDCHILIK HARAKATI VA  
UNING TURKIY XALQLAR  
ADABIYOTIGA TA'SIRINI  
O'RGANISH MUAMMOSI**

**(Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari)**

**2023-yil 13-oktabr**

Qarshi  
"Nasaf" NMIU  
2023

## MUNDARIJA

D.H. Nabihev	Fidoyi ma'rifatparvarlar faoliyati – ilmiy tadqiqotlar ko'zgusida .....	3
<b>1-SHO'BA: O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI VA JADIDCHILIK MASALALARI</b>		
Nurboy Jabborov,	Turkiston matbuotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi.....	5
Islam Jemeney	Jadid estetikasining shakllanishi.....	9
Uzoq Jo'raqulov	Ismoil Gasprinskiyning Alisher Navoiy ijodiga munosabati	16
Zaynabidin Abdirashidov	Fitrat – mashrabshunos.....	20
Rashid Jumayev	Yo'l obrazi: an'ana va novatorlik.....	23
Odiljon Avaznazarov	Jadid she'riyatida mumtoz an'analar takomili.....	26
Zilola Namozova	Muhsiniy she'riyatida ijtimoiy muhit takqini.....	29
Furqat To'xtamurutov	Komil Xorazmiy masnaviyalarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.....	32
Dilnoza Xudayarova	Komil Xorazmiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari to'g'risida Salohiyning gul va bulbul obrazi jadid adabiyoti namoyandası Abdulla Avloniy talqinida.....	36
Nigora Bo'tayeva	Navoiyning forsiy merosi Fitrat talqinida.....	38
Surayyo Shodiyeva	Komil Xorazmiy ijodida an'anaviy poetik obrazlar tadriji	40
Yusuf Amonov	.....	42
Ziyadulla Kenjayev	<b>2-SHO'BA. JADIDCHILIK G'oyalari VA YANGI O'ZBEK ADABIYOTI</b>	
Muhayyo Yaminova	Behbudiy publitsistikasining mavzuiy xarakteri.....	45
Nafas Shodmonov	Jadidchilik va milliy adabiyot.....	51
Gulnoza Ernazarova	Miskinning ma'rifiy qarashlari.....	55
Shahobiddin Nuriddinov	Fitratning adabiy tur va janrlarga munosabati.....	58
Orzigel Hamroyeva	Jadid hikoyalarida milliylik va an'analar talqini.....	61
Gulchelra Imomova	Ikki jadid munavvari – Hamza va Cho'pon munosabatlari xususida.....	66
Otabek Jo'rabyoyev	Cho'pon va jadidchilik.....	70
Shahlo Hojiyeva	O'zbek dramaturgiyası rivojida Hamzaning o'rni.....	73
Saodat Mo'minova	Adabiy-estetik tafakkur – poetik obraz yangilanishi asosi....	75
Dildora Raxmonova	.....	
Abdumurod Arslonov,	Turkistonda milliy matbuot va adabiyot.....	77
Nodira Egamkulova	Is'hoqxon To'ra Ibrat she'riyatining mavzu ko'lami va janr xususiyatlari.....	81
Ozodaxon Boltaboyeva	Jadid hajviyotining rivojlanish bosqichi.....	84
Gulruxbegim Ravshanova	Behbudiyning adabiy tanqidga doir qarashlari.....	87
Oybarchin Abdulhakimova	Fitrat publitsistikasining ijtimoiy-estetik talqini.....	89
To'lqin Kenjayev	.....	
Shahnaza Qahhorova,	Usmon Nosir adabiy merosining tasnifiy tahlili.....	92
Farhod Qiyomov	Barmoq – milliy she'riyatimizning asosiy vazni.....	98
Shohida Karamova	Jadid romanlarida badiiy modifikatsiya.....	100
Nilufar Sultonova	Hamza she'rlarida zamondosh ayollar obrazi ("Oymisan yo qamara..." she'ri tahlili misolida)	103
Nodira Xolikova	.....	
G'iyosiddin Shodmonov,	Jadidlar ijodida ziyoli obrazi.....	105
Shohista Shermamatova	Jadid dramaturgiyasida inson va istiqlol konsepsiysi (Behbudiy va Fitrat dramalari misolida).....	108
Maxsuda Berdimuratova	Jadid adiblarining ijodida millat talqini.....	112
Normurod Avazov,	Badiiy asarda "Kecha, tun" so'zlarining g'oyaviy-badiiy qirralari.....	116
Nilufar Cho'liyeva	O'zbek she'riyatida erk talqini.....	117
Muhayyo Rayxonova	.....	

7. Yo'ldoshev Q. So'z yolkini. – T., "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2018. – B.258.
8. Vohidov E. She'r dunyosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. – T., "Sharq", 2001. – B.180.
9. Shukurov N. Jonim – she'riyatim. O'zbek adabiy tanqid. Antologiya. – T., "Turon-Iqbol". – B.104.
10. Karimov N. Uch buyuk siymo. – T., "Mumtoz so'z". 2019.

## BEHBUDIYNING ADABIY TANQIDGA DOIR QARASHLARI

**Oybarchin ABDULHAKIMOVA,  
O'zbekiston, TDO'TAU, PhD**

**Annotatsiya.** Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning adabiy tanqidning mohiyati, estetik va ijtimoiy vazifasi, dramatik asarlarning ilmiy tasnifi, teatrning adab va ibrat maktabi sifatida Vatan va millat taraqqiyida tutgan o'rni haqidagi qarashlari ilmiy baholangan. Adibning "Tanqid – saralamoqdur", "Teyotr nadur" singari maqolalari zamonaviy milliy tanqid takomilida alohida o'rim tutishi, muallif adabiy-estetik qarashlarini to'laqonli ifoda etishi tahliliy asosda dalillangan.

**Kalit so'zlar:** tanqid, munaqqid, drama, teatr, adabiy-estetik qarash, metodologiya, tanqidiy fikr.

Zamonaviy o'zbek tanqidchiliga milliy uyg'onish davrida asos solindi. Abdurauf Fitratning o'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyotiga oid tadqiqotlari, Cho'lponning mashhur "Adabiyot nadir", Abdulla Avloniyning "Sanoe nafisa", Abdurahmon Sa'diyning "Go'zal san'at dunyosida" maqolalari, Vadud Mahmudning adabiy tanqidga oid asarlari ana shunga xizmat qildi. Mazkur mualliflarning faoliyati adabiy tanqid rivojiga samarali ta'sir ko'rsatganini e'tirof etgan holda, ta'kidlash zarurki, Mahmudxo'ja Behbudiyning bu boradagi ishlari alohida e'tiborga molikdir. Zero, professor Begali Qosimov alohida ta'kidlaganidek: "Behbudiylar adabiy tanqidga katta e'tibor berdi. Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukonatdan so'ng Bu sohaning xos xususiyatlarin tayin etib, adabiyotda uning tenghuquqliligi masalasini o'rtaga qo'ydi" [4, 226].

Adabiy tanqidga ta'rif berish ehtiyoji sezilsa, adabiyotshunos olimlaru munaqqidlarimiz bugungi kunda ham Behbudiyning "Tanqid – saralamoqdir" degan iborasini takror va takror tilga oladilar. Negaki, bu ta'rifda adabiy tanqidning nafaqat vazifasi, balki asl mohiyati teran ifodalangan. Ulug' mutafakkirning shu nomidagi maqolasida esa, ta'bir joiz bo'lsa, adabiy tanqidning barcha zamonlarda ham ahamiyatini yo'qotmaydigan yo'li, yo'rig'i chizib berilgan. Boshqacha aytganda, bu maqolada adabiy tanqidning metodologiyasi puxta va aniq ishlab chiqilgan.

"Sarroflar aqchani, tujorlar matoni saralaganidek, – deb yozadi muallif, – muharrirlar ham umumiyl hol va maishatqa taalluq nimarsalarni saralaydurki, boshqa so'z ila "tanqid" atalur. Masalan, yangi maktab va muallimlari va anda o'qulaturgon kitoblarni ma'nani taftish etib, andagi nuqsonlarni bayon etmoq tanqiddur" [1, 173].

Muallif, birinchi navbatda, tanqidning jamiyatda tutgan mavqe, unga munosabat qanday bo'lishi kerakligi masalasiga diqqat qaratadi. Uning fikricha, tanqid – nuqsonlarga munosabat bildirmoqdir. Uni dushmanlik qisatida qabul qilmaslik zarur. Faqat bir sharti bor: tanqidiy fikr shaxsiyatga to'qimsligi kerak. Lekin biror muallim, mudarris yoki muharrirning qilgan ishlardan, shaxsiyatidan xaloyiqqa zarar yetadigan bo'lsa, uni tanqid qilish shaxsiy ish bo'lmay, jamiyat uchun foydali yunush hisoblanadi. Demak, Behbudiyning nuqtai nazari bo'yicha, jamiyatga, xaloyiqqa zarar keltirishi mumkin bo'lgan har qanday ish, kim tomonidan sodir etilishidan qat'i nazar, tanqid qilinishi zarur. Muallif faqat adabiy tanqid haqidagina emas, tanqidning barcha yo'naliishlari bo'yicha qamrovli mulohaza yuritadi. Uning fikricha, tanqiddan maqsad islohdir, ya'nii muayyan xato va nuqsonni tuzatmoqdir. Shu bois uni to'g'ri qabul qilish zarur va bu millatning madaniy darajasini ko'rsatuvchi muhim omildir. Lekin muallif bizning

xalqimizda tanqidga to'g'ri munosabat shakilanmaganidan afsuslanadi. Mana, bu haqda u nimalarni yozgan: "Bizni(ng) Turkistonda yangi maktablar xeyli bordur. Yangi risola xeyli bosilib turubdur. Jaridalarg'a maqola va she'rlar o'qulub turubdur. Ammo hanuz tanqid davriga yetishganimiz yo'q. Ittifoqo, tanqid shaklinda bir nimarsa yozilsa, bizlarga qattiq tegar. Yozganlarimizni(ng) buzuqligi va fikrimizni(ng) xatoligi, ishimizni(ng) noqisligini biror kishi ko'rsatsa, achchig'imiz kelur. Va ul odamni dushman ko'ruba, shaxsidan nafrat va fikrig'a norozilik bayon eturmizki, bul bizni(ng) yangidan ishg'a boshlaganimizdan, boshqa til ila noqisligimizdandur" [1, 173].

Behbudiyning yozishicha, millat taraqqiyga erishmog'i, uning madaniy darajasi yuksalmog'i uchun tanqidni to'g'ri qabul qilish, nuqsonlardan to'g'ri xulosa chiqarish zarur. Bunday munosabatning shakllanmagan esa, taassufga loyiqdır. Bu holni tezlik bilan isloh etish kerak. "Biz eskilarni ayblaymizki, – deb yozadi u, – alarg'a islohdan so'zlasak, chiday olmaydurlar. Ammo o'zimizning mifik, risola, tahrir va maslakimizni bir kishi tanqid etdimi, chiday olmaymiz, diqqat ila munaqqid so'zini tinglamaymiz. Munaqqid bizni(ng) to'g'rimizg'a ming so'z ila bayoni mudaao etar ekan, biz oni(ng) ichindan o'n so'zini noma'qul topib, yuzig'a urarmiz. Va yoinki vajhsiz oning so'zini raddu o'zig'a e'tiroz etarmiz. Agarda ul desaki, man sizg'a bir ming kalima nasihat yo tanqid so'yadim, durust, o'n kalimasi sizg'a bejo ekanki, qaytib oldim, to'qson to'qqiz kalimasig'a ne dersiz? Na javob berarmiz?" [1, 173-174].

Muallif aksar vatandoshlarining tanqidiy fikrni tinglash, bu haqda chuqur mulohaza yuritish darajasiga erisha olmaganini taassuf bilan qayd etadi. Kavkazlik sayyoh Muhammad Sayyid afandining Turkiston maktablari to'g'risida tanqidiy qarashlari ifodalangan maqolasiga asossiz e'tiroz bildirilganini bunga misol qilib ko'rsatadi. "Oyna" jurnalining 27, 28, 29, 30-sonlarida bosilgan tanqidiy ruhdagi chiqishiga javoban "Sadoi Turkiston" gazetasida mazkur muallifga va tahririyatga norozilik izhor etilganini "hanuz tanqidga loyiq bo'la olmaganimiz"ga dalil sifatida keltiradi. Behbudiyl bundan quyidagicha xulosa chiqaradi: "...biz hamuz tanqidg'a layoqat paydo etganimiz yo'q. Yana qadima kasallarimizdan – "norizo", "xotiri qolmasinu..." illatlari hanuz ketgani yo'q... Munday ketabersa, qiyomatdan ming yil so'ogra-da, Turkistong'a taraqqiy yo'q. Agarda "xotir qolmasun" qoidasi maslak tutilsa, matbuotdan qalam tortmoq kerak".

Tabiiyki, o'tgan asr avvalida aytilgan bu fikrlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini zarracha bo'lsin yo'qotgan emas. Adibning estetik konsepsiysi mohiyatini ifodalagan qarashlari adabiy tanqid shakllanishi va milliy zaminda takomil topishida alohida o'rinn tutdi. Adabiyotshunos Nurboy Jabborov aytganidek: "Mahmudxo'ja Behbudiyl siyosatshunos va publisist, adib va pedagog, noshir va jurnalist sifatida keng qamrovli faoliyat olib bordi. Har bir ishida bosh mezon millat va milliyat masalalari bo'ldi" [3, 84]. Shu bois uning adabiyot va teatr tanqidiga doir konseptual fikrlari zamonaviy adabiy tanqidning paydo bo'lishi va rivojlanishida asoszamin vazifasini o'tadi.

Behbudiyning "Teyotr nadur" maqolasi uning adabiy-estetik qarashlarini ancha to'laqonli ifoda etgani bilan alohida ajralib turadi. Ushbu savolni qo'yari ekan, muallif "...teyotr ibratnamodur, teyotr va'zxonadur, teyotr ta'ziri adabiydur", deya javob beradi [2, 175]. Teatr xususida turlicha bahslar ketayotgan, yangilikni qabul qilishni istamaydiganlar teatrga qarshilik ko'rsatayotgan bir kezda Mahmudxo'ja Behbudiyning bu maqolasi odamlarga chaqmoqdek ta'sir qildi. Ularni tafakkur qilishga, aql ko'zini ochishga undadi.

Avvalo, teatrning ijtimoiy, adabiy-estetik vazifasi xususida so'z ochgan muallif uning "va'z va tanbeh etuvechi hamda zararlik odasi, urf va taomilni qabih va zararini aniq ko'rsatuvchi" san'at turi ekanini ta'kidlaydi. "Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildiruvchi" ekaniga urg'u beradi. Taraqqiy qilgan millatlar teatrni ulug'lar uchun adab va ibrat maktabi deb atashiga diqqat qaratadi.

Teatrga ta'rif berar ekan, Behbudiyl uni yaxshi va yomon odatlarni saralaydigan munaqqid, deya baholaydi. San'atning bu turi, muallif fikricha, alohida ta'sir quvvatiga ega. Uning yozishicha: "Har kim mundan ta'sirlanib, yomon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg'a sabab bo'lur" [2, 175].

O'zbek tanqidchilari orasida birinchilardan bo'lib muallif dramatik asarlarning ilmiy tasnifi haqida so'z yuritadi: "Teyotrxona sahnalarinda qo'yulaturgon asarlar fojea, ya'ni qayg'ulik, mazhaka, ya'ni kulgu, drama, ya'ni hangomalik bir voqe va hodisani tasvir etib, xaloyiqg'a ko'rsatilur". Dramatik turning uch janri: 1) fojea (tragediya), 2) mazhaka (komediya), 3) drama haqida so'z yuritar ekan, Behbudiy ulardan har birining xos xususiyatlari, birini boshqasidan ajratib turuvchi belgilariga alohida e'tibor qaratadi.

Muallif teatrning hikoyat yoki nasihat kitoblaridan farqi xususida to'xtalar ekan, san'atning bu turiga mana bunday baho beradi: "...maxsus bir hodisa va yo voqe va hikoyatni fe'l'an qilib ko'rsatiladurki, muning ta'siri eshitkandan ziyodadur". Drama nazariyotchilarining unda yetakchi unsur harakat ekani haqidagi fikrlariqa diqqat qaratilsa, Behbudiyning bundan yuz yil avval bu janrga xos ana shu xususiyatini teran anglagani hayrat va e'tirofga loyiqdir.

Mazkur maqola so'ngida Mahmudxo'ja Behbudiy o'z qalamiga mansub "Padarkush" dramasining salmaga qo'yilgani, undan kelgan daromadning maktablarga sarflangani xususida ma'lumot beradi. U o'z asarini "tanqid etib, buzuq yerini matbuot ila bayon etsalar, toki boisi isloh bo'linsa", tarzidagi fikrlarni bildiradi. ""Padarkush"ni "...kul'durguchi va ham yig'latguchi nosih (nasihat asosiga qurilgan - O.A.) va nofe' (foydale) asardur" deya baho bergan vatandoshlariga minnatdorlik bildirish barobarida, asarning "qabihini yozg'on kishig'a ziyodaroq tashakkur aytmoqqa madyun" ekанини ta'kidlaydi. Shuning o'ziyoq Behbudiyning o'zi bildirgan nazariy fikrlarga hayotda qat'iy amal qilganini, millat manfaatini o'z shaxsiy qiziqishlaridan ustun qo'ya olgan ulug' siymo bo'lganini yana bir kaitra tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik namoyandası Mahmudxo'ja Behbudiyning tanqid haqidagi qarashlari o'sha zamonda qanchalik ahamiyatli bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ham shunchalik qadrlidir. Mutafakkirning tanqidga doir fikrlari, birinchidan, zamonaliviy o'zbek adabiy va teatr tanqidchiligining shakllanishi va rivojlanishida alohida o'rinn tutdi. Ikkinchidan, tanqidchilikning metodologik asoslari ishlab chiqilishiga zamin tayyorladi. Uchinchidan, bugungi yosh avlodning adabiy-estetik va tanqidiy dunyoqarashini o'strish ishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Бехбудий Махмудхўжа. Танқид – сараламоқдир. – Таиландган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган З-нашри (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изохлар муаллифи Б.Косимов). - Тошкент: Маънавият, 2006.
2. Бехбудий Махмудхўжа. Теётр надур. – Таиландган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган З-нашри. - Тошкент: Маънавият, 2006.
3. Жабборов Нурбой. Маърифат надир. – Тошкент: Маънавият, 2010.
4. Косимов Бегали. Миллый ўйтониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.

#### FITRAT PUBLISISTIKASINING IJTIMOIY-ESTETIK TALQINI

To'lqin KENJAYEV,  
O'zbekiston, QarDU, PhD, dots.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligida Fitratning publisistik asarlari tadqiqi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** publisistika, millatparvarlik, adabiyotshunoslik, ijtimoiy-estetik talqin, ilmiylik, badiiylik.

Fitratning publisistik asarlari o'zining ijtimoiy salmoqqa egaligi bilan ajralib turadi. Mustaqillik yillarda uning "Munozara", "Hind sayyohi", "Oila", "Rahbari najot" va matbuotda e'lon qilingan publisistik maqolalari jadidchilik harakatining mazmun-mohiyatini chiqurtoq anglashga, ijtimoiy davr manzarasini to'laqonli tasavvur qilishga zamin hozirlagan edi.